



UO'K:82.091-311.6

Olimjon DADABOYEV,
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD
E-mail: odadaboev@mail.ru

NamDU dotsenti I.Tojiboyev taqrizi asosida

TARIXIY MANBALARNING HUJJATLI ROMANLAR YARATILISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada tarixiy manbalarning hujjatli romanlar yaratilishidagi o'rni yoritiladi. Tarixiy hujjatlar va arxiv materiallari hujjatli romanlarda tarixiy haqiqatni badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Ularning to'g'ri tanlanishi va qayta ishlanishi asarning ishonchiligi va badiiy ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Hujjatli roman, tarixiy manbalar, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, arxiv hujjatlari, Klavixo, "Jome' ul-tavorix", "Sayohatnoma", mo'g'ul, turkiylar.

THE IMPORTANCE OF HISTORICAL SOURCES IN THE CREATION OF DOCUMENTARY NOVELS

Annotation

The article explores the role of historical sources in the creation of documentary novels. Historical documents and archival materials serve to artistically convey historical truth in documentary prose. Their proper selection and processing ensure the credibility and artistic expressiveness of the work.

Key words: Documentary novel, historical sources, historical truth, artistic interpretation, archival documents, Klavixo, "Jome' ul-tavorix", "Sayohatnoma", mo'g'ul, turks.

ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В СОЗДАНИИ ДОКУМЕНТАЛЬНЫХ РОМАНОВ

Аннотация

В статье раскрывается роль исторических источников в создании документальных романов. Исторические документы и архивные материалы служат художественному отражению исторической правды в документальной прозе. Их правильный отбор и переработка обеспечивают достоверность и художественную выразительность произведения.

Ключевые слова: Документальный роман, исторические источники, историческая правда, художественная интерпретация, архивные документы, Клавиho, «Жоме ут таварих», «Саёхатнома», могул, турки.

Kirish. Hujjatli nasrda asosiy o'rinni tasvir jarayonida tarixiy va ilmiy manbalarga, ya'ni hujjatlariga tayanish egallaydi. Bu esa janrning faqat badiiy yozuv jihatlarga emas, balki faktologiya va tarixiy haqiqatlarga asoslangan ilmiy tahlil jihatlarga ham e'tibor qaratilishini talab qiladi. Gap shundaki, Amir Temur saltanatidagi shahar va qishloqlarning holatlari haqida yozganda ko'pchilik tarixiy asarlarga suyanadi. Biroq ana shu tarixiy asarlar va solnomalarda yozilgan shaharlardagi vayronagarchilik-larning hammasini ham Amir Temur nomi bilan bog'lash noto'g'ri. Axir u yyerlarda Amir Temur kelguniga qadar ham o'zaro urushlar bo'lib turgan-ku!

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu haqda Ibn Battutaning "Sayohatnoma"sidan ham ma'lumotlar olish mumkin. Xususan, Isfahon haqida u shunday deb yozadi: "Isfahon juda katta va ko'rkam shahar bo'lsa-da, biroq hozirda uning aksariyat qismi ahli sunnat va rofiziylar o'rtasidagi fitna-janjallar sababli harob holga tushib qolgan. Ular o'rtasidagi bu nizo hozirda ham tinchimagan bo'lib, kurash hamon davom etmoqda" [3]. Kufa shahri haqida: "...unga uzangan dushman qo'llari va qo'shnisi bo'lmish Xafoja arablari tomonidan buz'unga uchragani bois shaharda xarobligu vayronagarchilik hukmron" [3]. Arzirum shahri haqida: "...ikkita turkman urug'i o'rtasida yuzaga kelgan urush-janjall sababli aksariyat qismi xarobaga aylangan" [3] Bursa haqida "...shahar tamoman xarob bo'lgan edi" [3] "Balx va Marv vayronaga aylangan joylar

ekan" [3]. "Dehli dunyoning eng katta shaharlaridan biridir. Biz kelganda u bo'm-bo'sh va xarobaga aylangan bo'lib, faqat ba'zi binolar saqlanib qolgan edi, xolos" [3]

Ko'rib turganingizdek, bu shaharlarning vayron holatga kelishini birgina Amir Temur nomi bilan bog'lash noto'g'ridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayrim yozuvchi va tarixchilarning Amir Temur bosib o'tgan yo'llardagi vayronagarchiliklar haqidagi ma'lumotlarini o'qib qo'rqib ketasiz. Aslida ham shundaymikin? O'sha davrda Samarqandga sayohat qilgan Klavixo kundaligini sinchiklab o'rganib chiqib, bu ma'lumotlarning bo'rttirilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Samarqandga kelish jarayonida Klavixo 23 ta shahar nomini tilga olgan. Shulardan ikkitasining vayron holda ekanini yozgan. Biri Shaxaripra shahri bo'lib, u Amir Temur davridan ancha ilgari vayron etilgan bo'lsa, ikkinchisi – Kusakana shahrini To'xtamish vayron etgani yozilgan. Arsing, Aseron, Kalmarin, Xoy, Kaza, Chauskad, Tabriz, Miana, Sultoniya, Ksaxarkan, Texron, Vaskal, Yagaro, Nishopur va boshqa shaharlarda bo'lgan Klaviho ularning vayron etilgani haqida bir og'iz ham gapirmagan. Bu shaharlarning 8 tasi haqida gapirar ekan, ularning atrofi bog' va uzumzorlar bilan o'ralganini aytadi. Ba'zan esa Klavixo bir shahardan ikkinchisiga o'tar ekan, cheksiz bog' va uzumzorlardan o'tgani haqida yozgan. Biz bu shahar va qal'alar nomini o'zgartirmay berishga qaror qildik: Arsing shahri. Vayrona emas. Atrofi chiroyli bog'lar va

uzumzorlar bilan o'ralgan. Shaharda ko'plab xristian, arman va greklar yashaydi. Aholi ko'p. Uylar, ko'chalar chiroyli. Aseron shahri. Vayrona emas. Mustahkam va keng tosh devor bilan o'ralgan. Cherkovi bor. Armanlar ko'p. Kalmarin shahri. Vayrona emas. Armanlar ko'p. Alinga qal'asi. Atrofi bog'. Xoy shahri. Atrofi bog'. Ishlov berilgan dalalar. Shahar G'isht devor bilan o'ralgan. Vayrona emas. Armanlar ko'p. Kusakana shahri. Vayrona. Biroq Klaviho Kusakana shahrining vayron etilishini Koramish (To'xtamish) nomi bilan bog'liq ekanini aytadi. Kaza shahri. Atrofida bog' ko'p. Chauskad shaharining atrofida bog' va uzumzor ko'p. Ular yurgan yo'lining katta qismi cheksiz bog' va uzumzorlardan o'tar ekan. Tabriz shahrini o'rab turuvchi devorning yoqligini yozgan. Tabriz shahri ham vayron etilmagan. Sultoniya. O'rab turuvchi devor yo'q. Atengala, Xuar qishloqlarida to'xtagan. Sekezana qishlog'i. Katta, suv va bog' ko'p. Shaxarkan (Ksaxarkan) shahri. Vayron etilgani haqida gap yo'q. Tehron. Chiroyli ekan. Hamma narsa bor ekan. O'rab turuvchi devor yo'q. Nishopur. Vayrona emas. Aholisi ko'p. Atrofida ko'plab sug'orish kanallari va bog'lar bor. Xazegur, Odjadian shaharlari ham vayron etilmagan. Buyelo shahri. Vayrona emas. Aholisi juda ko'p. Ankoy shahri. Atrofi bog'. Uzumzor. Vayrona emas.

Yuqorida nomlari keltirilgan yyerlardan Klavixo Amir Temur izidan o'tgan va o'z ko'zi bilan ko'rgan. Bundan kelib chiqadiki, Amir Temur o'z qo'shini bilan o'tgan yyerlar hamisha ham vayron etilavermagan. Bog'-rog'lar qo'shin otlari tuyog'i ostida toptalmagan. Demak, Amir Temur lashkari yurgan yo'lida hamma narsani yo'q qilib, yyer yuzidan supurib ketmagan ekanda.

Tarixiy manbalardagi noaniqliklar ta'siri nafaqat horijlik, balki o'zbek temurshunoslari asarlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, Amir Temurning o'z kenja o'g'li – Shohruxga munosabati haqidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratsak. Sharq manbalariga asoslangan Turg'un Fayziyev "Amir Temurning bu kenja o'g'liga e'tiqodi kamroq" bo'lgani haqida yozadi [10]. Biroq boshqa ma'lumotlar ham borki, buning aksini ko'rsatadi. Xususan, 1392-yilda Amir Temur Chingizxon tomonidan vayron etilgan Banokat shahrini qayta tiklaydi va uni kenja o'g'li Shohruxning sharafiga Shohruxiya deb ataydi. Shunisi aniqki, tarixchilar nazdida Shohruxdan yuqori qo'yilgan Jahongir, Umarshayx va Mironshoxlar bunday e'tiborga sazovor bo'lmaganlar. Shu o'rinda Shohrux Mirzoning o'g'li Mirzo Ulug'bek masalasi ham yuqoridagi fikrga oydinlik kiritadi. Tarixdan ma'lumki, Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'aydir. Lekin nimagadir bu inson Muhammad Tarag'ay nomi bilan emas, balki Ulug'bek nomi bilan atalgan. O'sha paytda turkiylarda Ulug'bek ismi qo'yilmagan. Bu ism na Sharafiddin Ali Yazdiyda, na Nizomiddin Shomiyda va na Ibn Arabshohda turkiylar ismi sifatida tilga olingan. Faqatgina Mirzo Ulug'bek mana shu nomni olgan. Ulug'bek ismi masalasi V.V.Bartoldni ham qiziqtirgan. U Amir Temurni fors manbalarida amiri kabir, amiri buzruk rutbalari bilan ataganlari haqida ma'lumot beradi va bular turkiydagi ulug'bek rutbasining tarjimasi bo'lishi kerak, deb aytadi. Biroq nima uchun Amir Temurgina ega bo'lishi mumkin bo'lgan bu rutbaga Ulug'bek ham ega bo'lgani uni ham hayron qoldiradi va bu masalada aniq bir fikr ayta olmaydi [1] Amir Temurning Shohrux va uning o'g'li – Ulug'bekka bo'lgan munosabatidagi bu sirli tomonlar hali ilmiy tadqiq talab etadi. Balki shuni nazarda tutgandirki, Poyon Ravshanov ham manbalarda Shohrux Mirzo shaxsiga yyetarli baho berilmaganiga ishora qiladi [8].

Ko'p holatlarda sharqshunoslar tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga yuzaki yondashganlar va masalaning asl mohiyatiga tushunib yyetmasdan bu kabi faktlardan o'z asarlarida biryoqlama foydalanganlar. Amir Temur shaxsiga doir aksariyat ma'lumotlarda hali ham aniqlik yyetishmaydi.

Xususan, G'arb adabiyoti vakillari, sharqshunoslari, tarixchilar Sohibqiron – mo'g'ullar avlodidan, degan ma'lumotga tayanadilar. Zotan, Yevropaga turk-mo'g'ul qavmlari haqidagi fors tilida yozilgan tarixiy manbalar avvalroq ma'lum bo'lgan. Bu manbalarda Amir Temur mansub bo'lgan barlos urug'i turkiy qavmda ham, mo'g'ul qavmda ham bor edi, ya'ni aslida turk qavmiga mansub bo'lgan mazkur urug' mo'g'ullarga ham o'tgan. Qolaversa, bu tarix asarlari turkiy xalqlar xoqonlari sifatida emas, mo'g'ul qavmi xoqonlari kelib chiqishiga bag'ishlangan. Jumladan, Rashiddin Fazlulloh Hamadoniyning mo'g'ul Elxoniylar sulolasi saroyida yozgan "Jome' ul-tavorix" asari bu masalada yaratilgan ana shunday dastlabki tarix asari edi. Amir Temurni mo'g'ul qavmiga mansub deb qarash ana shu qavmning, qolaversa, O'g'uzxondan kelib chiqqan 24 urug'ning hammasini turkiylarga ham, mo'g'ullarga ham bir xilda nisbat berish an'anasiga asoslangan.

Rashiddin turk-mo'g'ul qavmlari tarixini bayon qilar ekan, 1-jildning 4-bo'limini shunday nomlaydi: "Ilgari laqabi mo'g'ul bo'lgan turkiy qavmlar haqida eslatma". Mana shu bo'limda barlos qabilasiga ham qalamga olingan [8]. Rashiddin bu qabilaning Chingizxon davridagi tarixi haqida to'xtaladi, xolos [8]. Rashiddin bu asarida aytganiday, Yofas mo'g'ullarning emas, turk xalqining ota-bobosidir [8]. Yevropa olimlari Amir Temurni mo'g'ul qavmiga nisbat berishiga sabab, yuqorida aytganimizday, mo'g'ullarning ildiziga – turk qavmidan kelib chiqqaniga emas, balki XIV asrdagi barlos urug'ining tarixiga e'tibor qaratadilar. Buning oqibatida esa buyuk Sohibqironning kelib chiqishi haqida nafaqat Yevropada, balki uning tug'ilgan yurtida ham chalkashliklar paydo bo'ldi.

Xorijda sharqshunoslar bir ovozdan Amir Temurni mo'g'ul qavmiga mansub deb bilishadi. Xususan, Hilda Hukhem shunday yozadi: "Uning otasi Tarag'ay Movarounnahrda Chig'atoylar bilan kelib, turkiylashib ketgan barloslar qabilasiga mansub edi" [15]. Jan Pol Ru ham bu masalada yuqoridagiday G'arb olimlari va ijodkorlarining fikriga qo'shiladi: "Bu oila haqiqatda mo'g'ul bo'lib, to'laligicha turkiylashib ketgan edi" [11]. Jastin Marotsining quyidagi fikri esa hammasidan oshib tushadi: "Barloslar tatar bo'lib, kelib chiqishi mo'g'ul bo'lgan turk qabilasidir..." [7] A.Y.Yakubovskiyning qarashlari esa quyidagicha: "Muborakxon bilan birga Mavoraunnahrda bir nechta mo'g'ul qabilalari, xususan, jaloyirlar va barloslar ko'chib kelganlar" [14]. Shuningdek, u qat'iy ravishda shunday xulosaga keladi: "Bu urug'lar Yettisuvdan ma'lum darajada turkiylashib kelgan. Yangi yyerlarda turkiylashish jarayoni yanada tezlashgan va oradan 100 yil o'tar-o'tmas jaloyir va barloslar turkiy qabilalar tarkibiga qo'shilib ketgan" [14].

Tahlil va natijalar. Haqiqatda ham barlos urug'i bir asr davomida shunchalik turkiylashib ketgan va o'zligini yo'qotib qo'yganni? – degan o'rinli savol tug'iladi. Butun boshli barlos va jaloyir urug'ining qisqa davr ichida o'z tilini unutib turkiylashib ketishi bir oz shubhali ko'rinadi. O'z-o'zidan o'rinli savol tug'iladi: ular turkiylashib ketganmi yoki o'zi turkiy bo'lganmi? Bu qabilalarning, xususan, barlos urug'ining kelib chiqishi haqida Rashiddin bergan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, Chingizxon davridan oldin ham ular qavm sifatida bo'lgan.

Rashiddin turkiy xalqlarni ikki toifaga bo'ladi. Birinchisi – "Hozirgi paytda mo'g'ul deb ataluvchi xalqlar, biroq ilgari ularning nomlari bunday bo'lmagan, chunki bu nom ulardan ancha keyin paydo bo'lgan. Bu xalqlar turli shaxobchalarga bo'lingan va ularning har birining o'z nomi bor: jaloyir, sunit, tatar, merkit, kurlaut, tulas (barlos), tumat, bulagachin, keremuchin, urasut, tamg'alik, targut, oyrat, bargut, kori, telengut, uryanxay, qurigan, sukait." Ikkinchisi –

“Xuddi yuqorida eslatilgan xalqlar singari tekisliklarda yashovchi yaqinda mo'g'ul deb atala boshlagan xalqlar... Bular: keraitlar, naymanlar, ongutlar, tangutlar, baxrinlar, qirg'izlar” [9].

Kitobning ikkinchi bo'limida ham Rashiddin xuddi shu ma'lumotni yana bir bor ta'kidlaydi, ya'ni bo'limning nomini u shunday deb nomlaydi: “Hozirgi paytda mo'g'ullar deb ataluvchi turk qabilalari xususida, biroq qadimda ularning har birining alohida nomi bo'lgan...” [9] Bu turk xalqlari haqida Rashiddin yana shunday ma'lumot beradi: “Ularning tashqi ko'rinishlari va tillari mo'g'ullarnikiga o'xshab ketadi, chunki o'sha paytlarda mo'g'ullar turk qabilalariga tegishli xalq bo'lgan; hozirgi paytda ularning (mo'g'ullarning – O.D) baxti, kuch-qudrati va buyukligi sababli qolgan barcha qabilalar ham ularning bu maxsus nomlari (ta'kid bizniki – O.D.) bilan ataladi” [9] Mana shu ma'lumotlardan ham mo'g'ullar deb atalgan turkiy qabilalarning aslida mo'g'ul emasligi ayon bo'ladi. Mo'g'ul va turk qabilalari, jumladan, barlos qabilasining yagona ildizdan tarqalgani haqida Rashiddinning kuzatuvlari va qarashlarini eng ishonchli, deb qaraymiz.

Shu o'rinda Rashiddin keltirgan ma'lumotdagi maxsus nom jumlasini e'tiborimizni tortdi. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asarida ham mo'g'ul qabilasining mavjudligi haqida hech bir so'z aytilmagan. Rashiddin ham o'z kitobi avvalida qabilalar nomlarini keltirar ekan, mo'g'ul qabilasi borligi haqida ma'lumot bermaydi. Xususan, u 26 ta turkiy qabila nomini keltiradi. Agar turkiy qabilalar orasida til jihatdan alohida ajralib turadigan mo'g'ul qabilasi bo'lganda edi, Koshg'ariy bu haqda albatta aytib o'tgan bo'lardi. Qolaversa, nom juda ko'p masalani hal qila olmaydi. Jumladan, “chig'atoy adabiyoti” termini, garchi Chig'atoyning nomidan qolgan bo'lsa ham, asl ma'nosidan uzoqlashib ketdi va turkiy adabiyotning alohida oqimini ifodalaydigan terminga aylanib qoldi. Yevropa sharqshunosligi va turkologiyasi “chig'atoy adabiyoti” terminisiz o'zbek adabiyotini tasavvur qila olmaydilar. Bu an'ana emas, balki qonuniyatga aylanib qolgan [10]. Amir Temurning qabilasi barlosni mo'g'ul qavmiga nisbat berganlari singari, Yevropa uchun nom bir qonuniy hodisa sifatida qabul qilingan.

Chingizxon atrofidagi qabilalarni yyenggach, ularni yagona nom ostida birlashtirgan. Bu nom esa o'ylab topilgan, albatta. Mo'g'ul so'zi mengu kol – mangu qo'shin, mengu el – mangu el kabi ma'nolarni bersa ajab emas. Bu xalqning kelib chiqishi esa ilohiylashtirilgan. Chingizxonning o'zi ham aslida qiyot qabilasidan bo'lgan [9]. Chingizxonning otasi Yesugey bahodir ham qiyot qabilasidan edi. Yesugey baxodirning farzandlari esa qiyot-burdjigin qabilasiga mansub bo'lgan. Burdjigin so'zi turkcha ko'kko'z deganidir [9].

Agar yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib fikr yuritadigan bo'lsak, Chingizxonning o'zi ham aslida mo'g'ul bo'lmagani ayon bo'ladi. U yo qiyot yoki nukuz qabilasi a'zosidir. Rashiddin asarida Chingizxon qo'l ostida xizmat qilganlar, uning kuyovlari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Qiziqarli yeri shundaki, bu insonlarning aksariyati turkiy qabilalarga mansub bo'lganlar. Chingizxonning qarindosh-urug'chiligi ham deyarli turkiy qabilalar bilan bo'lgan. Agar ana shu ma'lumotlarni e'tiborga olsak, Chingizxon ham turkiy tilda gaplashgan.

Aynan barlos qabilasining mo'g'ul qavmiga mansub emasligini Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” kitobida berilgan ma'lumotlardan ham anglash mumkin. Zero, Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Arablarda qancha bo'lsa turklarda ham qariyb shunchalik qabila va guruhlar bordir. O'sha vazirlardan har qaysisi bir qabilaga mansub bo'lib, o'z fikr chirog'i bilan u qabila uyalarini yorituvchi bir uzun pilik misoli edi. Ulardan birining qabilasi orlot, ikkinchisidiki jaloir,

uchinchisidiki qovchin, to'rtinchisidiki barlos deb atalardi. Temur to'rtinchi qabila o'g'loni edi” [4]. Rashiddin turk deb aytgan jaloir va barlos qabilalari Ibn Arabshoh asarida ham o'z isbotini topgan. Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi” asarida barlos, orlot, qo'ng'iroq, jaloyir kabi qabilalarning Chingizxon qo'shiniga ancha keyin qo'shilgani haqida aytiladi [5].

Aslida Movarounnahrda Chingizxon qo'l ostida faqat mo'g'ul qo'shinlari bostirib kirmagan. Qo'shinning juda katta qismini turkiy urug'lar tashkil etgan. Bu haqda tarixiy manbalarda ham ma'lumotlar mavjud. Xususan, Chingizxon tomonidan Bomiya qal'asiga hujum qilingani haqida “To'rt ulus tarixi”da shunday yoziladi: “Turklar nar ajdahodek bir hamla qilib, u qal'ani osonlikcha qo'lga kiritdilar” [5].

“Tarixi Rashidiy”da Xoja Ubaydulloh Ahrorning Marg'ilonga Sulton Ahmad mirzo va Umarshayx mirzoni yarashtirish uchun tashrifi haqida ma'lumot berilgan. “Tarixi Rashidiy” muallifi Muhammad Haydar mirzo Dug'lat shunday yozadi: “Eshon hazratlari Marg'ilonga kelganda aytgan ekanlar: “Men Yunusxonni mo'g'ul deb eshitgandim va mo'g'ullarni soqolsiz, qiliqlari sahroyilardak tasavvur qilar edim. Ammo xonni ko'rganimda fikrim o'zgardi” [6]. Bundan shunday fikr kelib chiqadiki, Xoja Ahror Movarounnahrda mo'g'ul qavmini ko'rmagan. Yunusxonni ko'rib, uning o'zi tasavvur qilib yurgan sahroyi mo'g'ul emas, balki turkiy ekanidan hayratga tushadi.

G'arb mamlakatlariga Sharq manbalarining yyetib borishi, ularning tarjima qilinishi va ulardagi ketma-ketlik yevropaliklarning va, qolaversa, ularning ma'lumotiga tayangan dunyoning barcha xalqlarini turkiy xalqlar haqidagi noto'g'ri tushunchalarga ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Xususan, Yazdiy, Shomiy asarlarining Yevropa tillariga nisbatan erta tarjima qilinishi, Mahmud Qoshg'ariy va Rashiddin asarlarining esa yevropaliklar e'tiboriga nisbatan kech havola qilinishi, qolaversa, keyingi ikki muallif asarlarining G'arbda sinchiklab o'rganilmagani mo'g'ullar haqidagi afsonaning haqiqatga aylanishiga, Amir Temur va avlodlarining mo'g'ul nomi bilan bog'lanishiga sabab bo'ldi.

Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi sharq muarrixlarining Amir Temur haqida yozib qoldirgan adabiy meroslari birlamchi manbalar ekani shubhasiz. Biroq yana shuni ham aniqki, bu manbalar Sohibqiron shaxsi haqida yakuniy xulosalar chiqarish uchun kamlik qiladi. Bu asarlarda Amir Temurni Chingizxon ajdodlariga, xususan Olanquvaga olib borib taqovchi shajara tavsifi berilganki, hamma ana shunga asoslangan holda Sohibqironni mo'g'ul deya so'nggi xulosaga keladi. Mazkur geneologik afsonaning o'ylab topilishi esa sharoit taqazosini edi. Zero, Amir Temur va unga zamondosh amirlarning hammasi taxtga da'vogarlik borasida teng huquqli edi. Yuqoridagi afsona esa Temurni bir pog'ona bo'lsa ham boshqa amirlardan yuqoriroqda turishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan. Ayniqsa, bu afsona oddiy xalqni boshqarish uchun juda ham kerak edi. Garchi Amir Temur taxtga chingiziy xonni o'tqazgan bo'lsa-da, buning bor-yo'g'i bir o'yin ekanini, hokimiyat Temurning qo'lidaligini hamma amirlar juda yaxshi bilishgan. Shuning uchun avvaliga amirlarni boshqarish, birlashtirish qiyin kechgan. Hattoki, ayrim amirlar Amir Temurga suiqasd uyushtirishgan.

Amir Temur vaziyatni juda to'g'ri baholay bilgan. Movarounnahrni hamma tarafdin Chingizxon avlodlari imperiyasi qurshab turardi. Oltin O'rda, Mo'g'uliston, Xitoy kabi qudratli raqiblarni tan olmasdan iloji yo'q edi. Shuning uchun ham u taxtga chingiziy xonni o'tqazishga va o'z ajdodlarining ham Chingizxon kabi Olanquvaga borib taqalishi haqidagi afsonani o'ylab topishga majbur bo'lgan. Bu ikki narsa uni yuqoridagi uchta katta dushmandan vaqtincha bo'lsa ham himoya qilib turardi. Amir Temur, ayniqsa, Xitoy bilan hisoblashishga majbur edi. Zero, u bu mamlakat qudratini

avvallari G'oyibona bilgan bo'lsa, keyinchalik o'z xufyalari keltirgan ma'lumotlar orqali juda yaxshi bilgan. Faqat 1405-yilga kelib, u Xitoyga qarshi yuqori darajada qudratga ega ekanini anglaydi. Bu Ispaniya elchilarini xitoylik elchilardan yuqori o'tqazishida ko'rinadi. Bu uning Xitoyga qarshi yurishni boshlanishida ko'rinadi.

Bu davrgacha esa o'ylab topilgan afsonaga hamma, qolaversa, Amir Temurning o'zi ham ko'nikib ulgurgandi. Agar Amir Temur chingiziylarni chin dildan hurmat qilgan bo'lsa, nega Suyurg'atmishni xon qilib ko'tarish marosimini ado etmagan? Ma'lumki, turkiylarda yangi taxtga o'tirgan xonni oq yoki qora kigizga o'tqazib, amirlar bosh uzra ko'tarishgan. Suyurg'atmish xonlik taxtiga o'tirganda, bu ritual amalga oshirilgani haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Bu esa Amir Temurning Chingizxon yosoqlariga amal qilmaganini, uning qonunlaridan o'z manfaatlariga mos kelgan holdagina foydalanganini ko'rsatadi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida ham Amir Temur zamondoshlari qoldirgan manbalardagi ayrim ma'lumotlarga shubha nazari bilan qarash paydo bo'la boshladi. Xususan, P.Qodirov o'z asarida shunday deydi: "Amir Temur hayotining o'ta mas'uliyatli burilish pallasi Shomiy tomonidan butunlay teskari bayon qilingan" [14].

Kitobni jamiyat va inson ko'zgusi deyishadi. Ko'zguda aks etayotgan tasvirlar insonning tashqi ko'rinishini aniq ifodalab berishi mumkindir, biroq uning ichki dunyosini to'laqonli yoritib bera olishi dargumon. Shunday ekan, Amir Temur shaxsi haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalarni o'rganish jarayonida muhim deb hisoblangan turli omillarni hisobga olish zarur. Alalxusus, Amir Temur obrazini yaratishni o'z zimmasiga olayotgan har bir ijodkor barcha birlamchi manbalarni jiddiy tahlil etishi, sinchkovlik bilan o'rganishi zarur. Bu ishlarni amalga oshirishda masalaga turli tomonlama yondoshuv

kerak. Amir Temur fotixlik yurishlari olib borgan ulkan maydon geografiyasi, demografiyasi, iqtisodi, tarixi – barcha yo'nalishlarda faktlarni to'plagan holda natijalar olinishi va qiyosiy o'rganilishi joiz.

Xulosa va takliflar. Tarixiy shaxslarga hech qachon oddiy insonlar to'g'risida chiqariladigan hukmlar nuqtai nazaridan turib baho bermaslik kerak. Tarixiy shaxsning o'sha davr jamiyatidagi o'zgarishlarga qay darajada aloqasi bor, bu o'zgarishlar kishilik jamiyatining rivojlanishiga olib keldimi yoki inqirozga sabab bo'ldimi, mana shu kabi savollarga ham javob topish kerak va unga ana shu nuqtai nazardan turib baho berish joiz. O'tmishdagi tarixiy shaxslar va voqealarga XX-XXI asr ijtimoiy qarashlari, insonparvarlik g'oyalari asosida baho berish tarix haqida noto'g'ri xulosalar chiqarishga sabab bo'ladi. Bu masala Amir Temur shaxsiyati qirralarini o'rganish jarayoniga ham bevosita aloqador. Amir Temur shaxsiga o'z davri nuqtai nazaridan turib baho berish zarur. Zero, zamon va makon almashinuvi qarashlar va g'oyalar almashinuviga ham olib keladi. Olti asr oldin ro'y bergan voqealar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga hozirgi zamon dunyoqarashi bilan baho berib bo'lmaydi. Sharqshunos yozuvchi Harold Lemb aytganidek, "Bu insonning shaxsiyatini to'liq idrok etish uchun uning hayot yo'lini o'rganish shart. Buning uchun esa Yevropa tarixi va zamonaviy sivilizatsiyani bir chekkaga surib qo'yish kerak bo'ladi. Temurga u bilan yonma-yon ot surgan insonlar ko'zi bilan qarash kerak" [2]. Aks holda faqat bir tomonlama qarashlar bilan hozirgi avlod kelajak avlod ongida bu buyuk inson haqida noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga sababchi bo'lib qolishi hech gap emas. Sharq va G'arb zamonaviy adabiyotida Amir Temur haqida yozilgan har bir asar jiddiy tadqiq etilishi, ularni birlamchi manbalarga qiyoslab o'rganilishi, qolaversa, birlamchi manbalarning o'zi qiyosiy jihatdan tahlil etilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В.В. Улутбек и его время. – Петроград: 1918.
2. Гарольд Лэмб. Тамерлан. Потрясатель вселенной. – Москва: Вече, 2008.
3. Ибн Баттута. Саёхатнома. – Тошкент: "Шарк" нашриёт-матбаа концернининг бош тахририяти, 2012.
4. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Т.: Мехнат, 1992
5. Мирзо Улутбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: Чўлпон, 1994.
6. Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: "Шарк" нашриёт-матбаа АК бош тахририяти, 2010.
7. Мароцци, Жастин. Тамерлан. Завоеватель мира. – М.: Полиграфиздат, 2010. – С.13.
8. Равшанов П. Амир Темур сулоласи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.
9. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том I. – М.: Изд. АН СССР, 1952.
10. Рахмонов Н. Ўзбек адабиёти даврлаштириш масалалари. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016.
11. Ру, Жан Поль. Тамерлан. – М.: Молодая Гвардия, 2007. – С.39.
12. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи, 1995.
13. Якубовский А. Ю. Тимур//Вопросы истории. 1946. № 8—9. – С.42-84.
14. Кодиров П. Амир Темур сиймоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
15. Хукхем, Хильда. Етти иклим султони. – Т.: Адолат, 1999. – Б.44.